

**O‘ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL
2026-YIL 1-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД № 1

**UZBEKISTAN LAW
REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 ISSUE 1

VOLUME 3 / ISSUE 1 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.1.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.



**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT
YURIDIK UNIVERSITETI**

“O‘zbekiston qonunchiligi tahlili” ilmiy-tahliliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2014-yil 21-iyulda 02-0074-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

E. Mustafayev,
Y. Yarmolik,
M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Musahhih:

M. Tursunov

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: lawreview.uz

E-mail: uzlawreview@tsul.uz

Nashriyot litsenziyasi

№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 2026-yil 19-martda

bosmaxonaga topshirildi.

Qog‘oz bichimi: A4.

Shartli bosma tabog‘i: 12,3.

Adadi: 100. Buyurtma: № 43.

Bosmaxona litsenziyasi

29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili:

100047. Toshkent shahri,

Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik
universiteti

TAHRIR HAY’ATI**BOSH MUHARRIR**

S. Gulyamov – Toshkent davlat yuridik universiteti Huquq va texnologiyalar sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI

I. Rustambekov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir o‘rinbosari

Sh. Xo‘jayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Intellektual mulk huquqi sho‘basi mudiri, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori – mas‘ul muharrir

O. Oqyulov – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquqi sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

A. Ener – Turkiyaning Anqara Haci Bayram universiteti dotsenti, Energetika nizolari arbitraj markazi bosh kotibi o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori

M. Bungenberg – Saarlend universiteti Yevropa instituti direktori, yuridik fanlar doktori

S. Tatar – Turkiyaning Anqara Yildirim Boyazid universiteti professori, yuridik fanlar doktori

J. Peeroo – Sarbonna Universiteti professori, Stone 36 yuridik firmasi advokati, yuridik fanlar doktori

B. Musayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Biznes huquqi va sud himoyasi fakulteti dekani, yuridik fanlar doktori, professor

Sh. Saydullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq sho‘basi professori, yuridik fanlar nomzodi

D. Habibullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi sho‘basi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

S. Bozorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro xususiy huquq sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

I. Bekov – Toshkent davlat yuridik universiteti Konstitutsiyaviy huquq sho‘basi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

V. Ergashev – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti direktor o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

Sh. Joldasova – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

O. Xazratqulov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro xususiy huquq sho‘basi mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

D. Suyunova – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

D. Maxkamov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti dekani, professor, yuridik fanlar doktori

D. Babadjanova – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquqi sho‘basi professori v.b., yuridik fanlar doktori

A. Matmurotov – Toshkent davlat yuridik universiteti Sud hokimiyati, advokatura va huquqni muhofaza qiluvchi organlar sho‘basi dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

E. Rahmatov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti dekani, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

M. Turdialiyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro xususiy huquq sho‘basi mudiri o‘rinbosari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Научно-аналитический журнал «Обзор законодательства Узбекистана» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 21 июля 2014 года с удостоверением № 02-0074.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:

Э. Мустафаев,
Е. Ярмолик,
М. Шарифова,
Ш. Бекназарова

Корректор:

М. Турсунов

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: lawreview.uz

E-mail: uzlawreview@tsul.uz

Издательская лицензия

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию

19.03.2026.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 12,3. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 43.

Лицензия типографии

от 29.11.2023 № 174626

Отпечатано в типографии

Ташкентского государственного

юридического университета.

100047, г. Ташкент,

ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

С. Гулямов – профессор сектора права и технологий Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ

И. Рустамбеков – проректор Ташкентского государственного юридического университета по учебной работе, доктор юридических наук, профессор – заместитель главного редактора

Ш. Хужаев – заведующий сектором права интеллектуальной собственности Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам – ответственный редактор

О. Окюлов – профессор сектора гражданского права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Энер – доцент Университета Анкары Хаджи Байрам (Турция), заместитель генерального секретаря Арбитражного центра по энергетическим спорам, доктор права

М. Бунгенберг – директор Европейского института Саарского университета, доктор права

С. Татар – профессор Университета Анкары Йылдырым Беязит (Турция), доктор права

Ж. Пироо – профессор Сорбоннского университета, адвокат юридической фирмы Stone 36, доктор права

Б. Мусаев – декан факультета бизнес-права и судебной защиты Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Ш. Сайдуллаев – профессор сектора теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, кандидат юридических наук, профессор

Д. Хабибуллаев – заведующий кафедрой гражданского процессуального и экономического процессуального права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

С. Бозоров – профессор сектора международного частного права Ташкентского государственного юридического университета (Registrar's Office), доктор юридических наук

И. Беков – заведующий сектором конституционного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

В. Эргашев – заместитель директора Института законодательства и правовой политики при Президенте Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

Ш. Джолдасова – ведущий научный сотрудник Института проблем законодательства и парламентских исследований при Олий Мажлисе Республики Узбекистан, доктор философии по юридическим наукам

О. Хазраткулов – заведующий сектором международного частного права Ташкентского государственного юридического университета, кандидат юридических наук, профессор

Д. Суюнова – профессор сектора уголовно-процессуального права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Д. Махкамов – декан факультета публичного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Д. Бабаджанова – и.о. профессора сектора гражданского права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Матмуротов – доцент сектора судебной власти, адвокатуры и правоохранительных органов Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

Э. Рахматов – декан факультета частного права и сравнительного правоведения Ташкентского государственного юридического университета по делам молодёжи и духовно-просветительской работе, доктор философии по юридическим наукам, доцент

М. Турдиалиев – заместитель заведующего сектора международного частного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

"Uzbekistan Law Review" scientific and analytical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on July 21, 2014, with certificate number 02-0074.

The journal is included in the list of journals of the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

E. Mustafaev,
Y. Yarmolik,
M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Proofreader:

M. Tursunov

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: lawreview.uz

E-mail: uzlawreview@tsul.uz

Publishing license

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the
Printing

house on 19.03.2026.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 12,3.

Units: 100. Order: № 43.

Printing house license

№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD

EDITOR-IN-CHIEF

S. Gulyamov – Professor of the Department of Law and Technologies of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

I. Rustambekov – Deputy Rector for Academic Affairs of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor - Deputy Editor-in-Chief

Sh. Khujaev – Head of the Department of Intellectual Property Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law - Executive Editor

O. Okyulov – Professor of the Department of Civil Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Ener – Associate Professor of Ankara Haci Bayram University, Turkey, Deputy Secretary General of the Center for Arbitration of Energy Disputes, Doctor of Law

M. Bungenberg – Saarlend universiteti Yevropa instituti direktori, yuridik fanlar doktori Director of the European Institute of Saarland University, Doctor of Law

S. Tatar – Professor of Ankara Yıldırım Bayezid University, Turkey, Doctor of Law

J. Peeroo – Professor of the University of Sarbonne, lawyer of the law firm Stone 36, Doctor of Law

B. Musaev – Dean of the Faculty of Private International Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

Sh. Saydullaev – Professor of the Department of State and Law of Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences

D. Habibullaev – Head of the Department of Civil Procedural and Economic Procedural Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

S. Bozorov – Professor of the Department of Private International Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

I. Bekov – Head of the Department of Constitutional Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

V. Ergashev – Deputy Director of the Institute of Legislation and Legal Policy under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

Sh. Joldasova – Chief Research Fellow of the Institute of Legislation Problems and Parliamentary Research under the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

O. Khazratkulov – Head of the Department of Private International Law of Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences, Professor

D. Suyunova – Professor of the Department of Criminal Procedure Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

D. Mahkamov – Dean of the Faculty of Public Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

D. Babadjanova – Acting Professor of the Department of Civil Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Matmurotov – Associate Professor of the the Department of Judiciary, Advocacy and Law Enforcement Agencies of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

E. Rahmatov – Dean of the Faculty of International Law and Comparative Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

M. Turdialiyev – Deputy Head of the Department of Private International Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

8 **XAYDAROVA MARJONA OLIM QIZI**

Davlat huquqiy siyosatining asosiy prinsiplari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

17 **ABDUQODIROV ABDURAUF BAXODIR O'G'LI**

Yevropa Ittifoqi doirasida yuridik shaxsning davlatga mansubligini aniqlash muammolari

26 **ZIYAMOV BOBURXON BAXTIYOR O'G'LI**

Diplomatiyada sun'iy intellekt: huquqiy va etik asoslar hamda xalqaro tartibga solish istiqbollari

34 **KOKANBAYEVA MADINA SHUKURBEKOVNA**

Subyektiv raqamli huquqlar tizimida insonning qaror qabul qilish huquqi

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

45 **SOLIYEVA KAMOLA RUSTAMJON QIZI**

Meros huquqiy munosabatlarida merosxo'rlarni aniqlash bilan bog'liq muammolar

56 **ODILOVA SITORA BOBIR QIZI**

O'zbekiston qonunchiligida protsessual muddatlar bilan bog'liq huquqiy muammolarni bartaraf etish

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI. IJTIMOY TA'MINOT HUQUQI

68 **PO'LATOV MIRZOHI QO'ZIMURODOVICH**

Oliy ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining mehnatiga haq to'lashning huquqiy asoslari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

81 **ALLOBERDIYEVA DURDONA O'KTAMJON QIZI**

Kurort yerlaridan foydalanish va muhofaza qilishning huquqiy jihatlari

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

89 **NURITDINOV JAMSHIDXON MAMUTXONOVICH**

Sud-ekspertlik sohasida raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish

97 **SULTONOVA LOBAR MAMARAYIM QIZI**

O'zbekiston qonunchiligini ekstraditsiya bo'yicha xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

108 **ABDIYEVA KAMOLA KOMILJONOVNA**

Raqamli transformatsiya sharoitida raqamli tafovut ayollar huquqlarini amalga oshirishga tahdid sifatida: xalqaro-huquqiy va milliy tahlil

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

- 8 **ХАЙДАРОВА МАРЖОНА ОЛИМ КИЗИ**
Основные принципы государственной правовой политики

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО.
СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

- 17 **АБДУКОДИРОВ АБДУРАУФ БАХОДИР УГЛИ**
Проблемы определения государственной принадлежности юридического лица в рамках Европейского союза
- 26 **ЗИЯМОВ БОБУРХОН БАХТИЁР УГЛИ**
Искусственный интеллект в дипломатии: правовые и этические рамки и перспективы международного регулирования
- 34 **КОКАНБАЕВА МАДИНА ШУКУРБЕКОВНА**
Право на человеческое решение в системе субъективных цифровых прав

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ
ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

- 45 **СОЛИЕВА КАМОЛА РУСТАМЖОН КИЗИ**
Проблемы определения наследников в наследственных правоотношениях
- 56 **ОДИЛОВА СИТОРА БОБИР КИЗИ**
Устранение правовых проблем, связанных с процессуальными сроками в законодательстве Узбекистана

12.00.05 – ТРУДОВОЕ ПРАВО. ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

- 68 **ПУЛАТОВ МИРЗОХИД КУЗИМУРОВИЧ**
Правовые основы оплаты труда педагогических работников высших образовательных организаций

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

- 81 **АЛЛОБЕРДИЕВА ДУРДОНА УКТАМЖОН КИЗИ**
Правовые аспекты использования и охраны земель курортных территорий

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ
ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

- 89 **НУРИТДИНОВ ЖАМШИДХОН МАМУТХОНОВИЧ**
Цифровизация и использование современных технологий в судебно-экспертной сфере
- 97 **СУЛТОНОВА ЛОБАР МАМАРАЙИМ КИЗИ**
Возможности гармонизации законодательства Узбекистана с международными стандартами экстрадиции

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

- 108 **АБДИЕВА КАМОЛА КОМИЛЖОНОВНА**
Цифровой разрыв как вызов реализации прав женщин в условиях цифровой трансформации: международно-правовой и национальный анализ

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

- 8 **KHAYDAROVA MARJONA OLIM KIZI**
Basic principles of state legal policy

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 17 **ABDUKODIROV ABDURAUF BAKHODIR UGLI**
Problems of determining the state belonging of a legal entity within the framework of the European Union
- 26 **ZIYAMOV BOBURKHON BAKHTIYOR UGLI**
Artificial intelligence in diplomacy: legal and ethical framework and prospects of international regulation
- 34 **KOKANBAEVA MADINA SHUKURBEKOVNA**
The right to a human to make decisions in the system of subjective digital rights

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

- 45 **SOLIEVA KAMOLA RUSTAMJON KIZI**
Problems related to the determination of inheritors in inheritance legal relations
- 56 **ODILOVA SITORA BOBIR KIZI**
Elimination of legal problems related to procedural terms in the legislation of Uzbekistan

12.00.05 – LABOR LAW. SOCIAL SECURITY LAW

- 68 **PULATOV MIRZOHID KUZIMURODOVICH**
Legal basis for remuneration of pedagogical staff of higher education institutions

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 81 **ALLOBERDIEVA DURDONA UKTAMJON KIZI**
Legal aspects of use and protection of resort lands

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

- 89 **NURITDINOV JAMSHIDKHON MAMUTKHONOVICH**
Digitalization and use of modern technologies in the forensic sector
- 97 **SULTONOVA LOBAR MAMARAYIM KIZI**
Possibilities for harmonizing Uzbekistan's legislation with international extradition standards

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

- 108 **ABDIEVA KAMOLA KOMILJONOVNA**
The digital space as a challenges to the realization of women's rights in the context of digital transformation: international legal and national analysis

Kelib tushgan / Получено / Received: 10.02.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 27.02.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 19.03.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.uzlawrev.3.1./JSUY2687>

UDC: 341.932.32(045)(575.1)

YEVROPA ITTIFOQI DOIRASIDA YURIDIK SHAXSNING DAVLATGA MANSUBLIGINI ANIQLASH MUAMMOLARI

Abduqodirov Abdurauf Baxodir o'g'li,

Toshkent xalqaro universiteti

Huquqiy fanlar kafedrası o'qıtuvchısı

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-6189-1287>

e-mail: mustread707@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yevropa Ittifoqining xalqaro xususiy huquqiy munosabatlarida muhim o'rin tutuvchi yuridik shaxsning qaysi davlatga mansubligini aniqlash maqsadida turli davlatlarning kollizion normalarini integratsiya doirasida tartibga solish yo'lida qilgan harakatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada yuridik shaxsning huquq subyektiligini tan olishga qaratilgan Gaaga va Bryussel konvensiyalari tahlili taqdim etilgan, ularda inkorporatsiya va o'troqlik mezonlari o'rtasidagi kelishmovchiliklar ko'rsatib berilgan. Shuningdek, xalqaro xususiy huquq bo'yicha Yevropa guruhining "Kompaniyalar va boshqa tashkilotlarga nisbatan qo'llanadigan huquq to'g'risida"gi qoidalari loyihasi ko'rib chiqilgan bo'lib, unda inkorporatsiya mezonining ustuvorligi hamda liberal yondashuv tendensiyasi tahlil qilingan. Yuridik shaxsning qaysi davlatga mansubligini belgilash bo'yicha xalqaro shartnomalar loyihalarini ishlab chiqishda Yevropa Ittifoqining turli integratsion maqsadlari va a'zo davlatlarning milliy qonunchiligidagi pozitsiyalari turlicha ekanligi asosiy to'siq sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: integratsiya, Yevropa Ittifoqi, Gaaga konvensiyasi, Bryussel konvensiyasi, qoidalar, inkorporatsiya, real o'troqlik, ekspluatatsiya markazi mezoni

ПРОБЛЕМЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПРИНАДЛЕЖНОСТИ ЮРИДИЧЕСКОГО ЛИЦА В РАМКАХ ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА

Абдукодиров Абдурауф Баходир угли,

преподаватель кафедры «Правовые науки»

Ташкентского международного университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются усилия государств Европейского союза по регулированию коллизионных норм различных государств в рамках интеграционных процессов с целью определения государственной принадлежности юридического лица, что занимает важное место в международных частноправовых отношениях. В статье представлен анализ Гаагской и Брюссельской конвенций, направленных на признание правосубъектности юридических лиц, в которых показаны разногласия между критериями инкорпорации и реального местонахождения (осёдлости). Также рассмотрен проект правил Европейской группы по международному частному праву «О праве, применимом к компаниям и другим организациям», в котором анализируются приоритет критерия инкорпорации и тенденция

2024-yilda M. Pargendlarning (2024) qayd etishicha esa yuridik shaxslar shaffofligi bilan bog'liq muammoli jihatlardan biri uning kollizion huquqqa ta'siri bilan bog'liqdir. Korporativ huquq sohasidagi umumiy kollizion qoida shundan iboratki, kompaniyaning ichki munosabatlari uning ro'yxatdan o'tkazilgan davlati huquqi bilan tartibga solinadi; bu davlat kompaniyaning asosiy faoliyat joyi (real joylashuv doktrinasi – o'troqlik mezon) asosida aniqlanishi yoki erkin tanlov (*erk-muxtoriyati*) predmetiga aylanishi mumkin.

Amaliyotda yuridik shaxsning huquqiy maqomini belgilovchi ikki asosiy mezon – inkorporatsiya mezon (kompaniya tashkil etilgan joy qonuni) va o'troqlik mezon (kompaniyaning boshqaruv markazi joylashgan joy qonuni) o'rtasidagi ziddiyat tobora kuchayib bormoqda.

Yuridik shaxsning millati bo'yicha so'z ketganda esa 2023–2024-yillarda Investitsiyaviy nizolarni hal qilish xalqaro markazi (ICSID) tomonidan ko'rib chiqilgan bir qator ishlar – *Marko Mihaljevic v. Republic of Croatia* (2023), *Encavis and others v. Italian Republic* (2024), *Desarrollo Vial de los Andes S.A.C. v. Republic of Peru* (2024) investorlarning millati va yuridik shaxslar uchun “haqiqiy va effektiv bog'liqlik” tamoyilining qo'llanishi masalalarini yanada dolzarblashtirganini qayd etish lozim.

Bundan tashqari, Martin Gelter (2024) o'z ilmiy tadqiqot ishida minimal kapital talablari va transchegaraviy kompaniya tashkil etish o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan hamda 2000-yillarning boshidan beri ko'plab Yevropa mamlakatlari xususiy firmalar uchun minimal kapital talablarini kamaytirgani yoki firmani shakllantirishni osonlashtirish uchun yangi, kapitalsiz biznes shakllarini joriy qilinganidan kelib chiqib, yuqori minimal kapital talablari asoschilarni iloji boricha boshqa yurisdiksiyada ro'yxatdan o'tishga undashda juda muhim, degan xulosaga kelgan.

Adabiyotlar tahlilidan yuridik shaxslarning “shaxsiy qonuni” va “millati” masalasi bo'yicha so'nggi yillarda nazariyani boyitish hamda amaliy yechimlarni ishlab chiqish yo'nalishida ijobiy o'zgarishlarni ko'rish mumkin.

Asosiy qism

Har qanday integratsiya uning tarkibiga a'zo bo'lib kirayotgan davlatdan milliy qonunchiligini unifikatsiya va garmonizatsiya qilishni talab etadi. Integratsiya doirasida iqtisodiy munosabatlarning barqarorligi yuridik shaxslarning bir davlat hududidan ikkinchi davlat hududiga erkin ko'chib o'tishi, bir a'zo davlat yuridik shaxsining ikkinchi a'zo davlat tomonidan tan olinishi kabi masalalarga bog'liq.

1956-yil 1-iyunda qabul qilingan “Xorijiy kompaniyalar, assotsiatsiyalar va institutlarning huquq subyektligini tan olish to'g'risida”gi Gaaga konvensiyasi yuridik shaxslarning huquq subyektligini tan olishda inkorporatsiya va o'troqlik mezonlari o'rtasida muvozanat o'rnatishga birinchi yirik urinish hisoblanadi (Hague Conference on Private International Law, 1956).

Gaaga konvensiyasini ishlab chiqishda mualliflar yuridik shaxsning inkorporatsiya mezon bo'yicha tashkil etilgan joyi va o'troqlik mezon bo'yicha asosiy boshqaruv markazi joylashgan joyi turli davlatlarda bo'lganda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatni tartibga solishga harakat qilgan. Buyuk Britaniya boshchiligidagi davlatlar o'zlarida inkorporatsiya qilgan, ya'ni tashkil etilgan yuridik shaxslarni diplomatik himoya qilish maqsadida ularning asosiy boshqaruv markazi qaysi davlatda bo'lishidan qat'i nazar, inkorporatsiya mezonini xorijiy jamiyatlarning huquq subyektligini aniqlash uchun Gaaga konvensiyasida qo'llash tarafdori edilar.

Fransiya boshchiligidagi boshqa davlatlar esa chet elda inkorporatsiya qilgan, biroq asosiy boshqaruv ishlarini ularning hududida amalga oshiruvchi kompaniyalarni majburiy tan olishdan

qochishga harakat qilishdi. Chunki Fransiya vakillarining fikricha, inkorporatsiya mezon soxta kompaniya tashkil etish imkonini beradi va bu orqali ular o'zlari faoliyat olib borayotgan mamlakatning imperativ normalarini, masalan, Fransiya aksiyadorlik qonunchiligining kreditorlar, ozchilik aksiyadorlarning huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qoidalarini chetlab o'tishadi (Kleshcheva, 2013, pp. 130–131). Oqibatda bunday ochiq qarama-qarshilik Gaaga konvensiyasining yakuniy variantida aks etmasdan qolmadi.

Konvensiyaning 1-moddasiga asosan, ahdlashuvchi davlatlardan birida rasmiy ro'yxatdan o'tgan va ustav bo'yicha organi qayerda joylashgan bo'lsa, kompaniya, assotsiatsiya, institutning huquq subyektligi boshqa ahdlashuvchi davlatlar tomonidan avtomatik ravishda tan olinadi. Biroq 2-moddada real o'troqlik mezoniga asoslangan istisno belgilangan: agar davlat qonunchiligi real o'troqlik mezoniga asoslangan bo'lsa va yuridik shaxs shu davlatda o'troqlikka ega bo'lsa, huquq subyektligi tan olinmasligi mumkin (Hague Conference on Private International Law, 1956).

I.A. Kleshcheva konvensiyaning 1-moddasini sharhlar ekan, ushbu modda inkorporatsiya mezoniga afzallik beradi, deb xulosa qilgan. Chunki uning fikricha, moddada xuddi ikki mezon – inkorporatsiya va o'troqlik mezon haqida gap ketgandek tuyuladi (Kleshcheva, 2013, p. 131), aslida esa inkorporatsiya mezon haqida so'z bormoqda, zero, amalda yuridik shaxsning ustav bo'yicha organi u ro'yxatdan o'tgan joyda tashkil qilinadi.

Bu Gaaga konvensiyasi, misol uchun, yuridik shaxs Buyuk Britaniyada inkorporatsiya qilingan bo'lsa va uning asosiy boshqaruv markazi Fransiyada joylashgan bo'lsa, Fransiya tomonidan tan olinmasligi mumkinligini anglatadi.

Oxir-oqibat, Gaaga konvensiyasi har bir ishtirokchi davlatga chet el yuridik shaxsini tan olish yoki olmaslikni o'zining milliy qonunchiligidan kelib chiqib hal etish huquqini berganligi konvensiya yuridik shaxsning shaxsiy qonunini aniqlovchi ikki mezon – inkorporatsiya va o'troqlik mezonlari o'rtasida kelishuv o'rnatishga harakat qilganini ko'rsatadi.

Amalda esa kelishuvga erishilmadi. Konvensiyaga qo'shilgan 5 ta davlat (Belgiya, Fransiya, Lyuksemburg, Ispaniya, Niderlandiya) uni kuchga kirishi uchun harakat qilmadi. Niderlandiya uchun konvensiya kuchga kirgan bo'lsa-da, mazkur mamlakat oxir-oqibat uni denonsatsiya qildi. Biroq *Max Planck Encyclopedia of Public International Law* (Peters, 2023)-da ta'kidlanganidek, ushbu konvensiya xalqaro fuqarolik muomalasining bir butun tizimini shakllantirish yo'lida "birinchi universal yondashuv urinishlaridan biri" sifatida tarixda alohida o'rin egallaydi.

1968-yil 29-fevralda Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (hozirgi Yevropa Ittifoqi) tomonidan "Kompaniya va korporativ birlashmalarni o'zaro tan olish to'g'risida"gi Bryussel konvensiyasi qabul qilindi. Ushbu konvensiya ham inkorporatsiya va real o'troqlik mezonlari o'rtasida muvozanatni topishga harakat qilgan.

Bryussel konvensiyasi "Yevropa Ittifoqini tashkil etish to'g'risida"gi shartnomaning 293-moddasida keltirilgan qoidaning ijrosini ta'minlash uchun qabul qilingan edi. Shartnomaning 293-moddasi, 4-bandida a'zo davlatlarga kompaniya va firmalarni o'zaro tan olish, yuridik shaxslarning huquqlarini bir davlatdan boshqa davlatga manzilini ko'chirganda saqlab qolish va turli davlatlarning qonunchiligi bilan tartibga solinuvchi kompaniya va firmalarning birlashishiga imkoniyat yaratish talablari qo'yilgan.

Shartnoma maqsadlari uchun esa xo'jalik maqsadi bo'lmaganlardan tashqari, kompaniya va firma deganda har qanday yuridik shaxs tushunilishi mumkin (European Communities, 1968). Demak, 1968-yilgi Bryussel konvensiyasi normalari tijoratchi bo'lgan yuridik shaxslarni tan olishni tartibga solishga qaratilgan.

Konvensiyaning 1-moddasida ustavi a'zo davlatdan birida ro'yxatdan o'tkazilgan kompaniya boshqa a'zo davlatlar tomonidan ham tan olinishi kerakligi qayd etilgan. 2-moddaga asosan, agar kompaniyaning real ro'yxatdan o'tgan ofisi a'zo davlat hududida bo'lsa va ana shu davlat bilan haqiqiy iqtisodiy bog'liqlikka ega bo'lsa, bunday kompaniya ham boshqa a'zo davlat tomonidan tan olinishi kerakligi belgilangan.

Y.M. Yumashevning (1988, pp. 84–87) fikricha, Bryussel konvensiyasi bir davlatda ro'yxatdan o'tgan, ammo ikkinchi davlatda ma'muriy markazini joylashtirgan yuridik shaxsni boshqa a'zo davlatlar tomonidan ham tan olinishiga oid qoida o'rnatmoqchi bo'lgan. Lekin natija unday bo'lmadi, bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki mezon tanlandi xolos.

Aytish kerakki, Bryussel konvensiyasida “shaxsiy qonun” yoki “millat” tushunchalari uchramaydi. A.Y. Auxatov Bryussel konvensiyasining 6-moddasida “huquq, bitim va layoqatsizlik” tushunchalari keltirilgan va bu tushunchalar “shaxsiy qonun” doirasiga kiradi hamda bu bilan konvensiya yuridik shaxsning shaxsiy qonuni aniqlovchi mezonlarni tartibga solishga qaratilgan, deb xulosa qiladi (Aukhatov, 2005, p. 29). Bu esa shundan dalolat beradiki, konvensiya yuridik shaxsning umumiy huquqiy holatini aniqlashda bir davlatning ichki qonuni (ya'ni shaxsiy qonuni)ga tayanishni tartibga soladi. Ya'ni konvensiya matnida shaxsiy qonun tushunchasining mavjud emasligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi.

Shuningdek, Y.M. Yumashev (1988, pp. 84–87) Bryussel konvensiyasi loyihasi mualliflari asosiy mezon sifatida inkorporatsiyani tanlagan, deb hisoblaydi. A.Y. Auxatov ham mazkur xalqaro hujjatda inkorporatsiya mezoni mustahkamlangan, degan fikrda (Aukhatov, 2005, p. 29). Biroq Bryussel konvensiyasini tahlil qilsak, bizningcha, unda asosiy mezon real o'troqlik mezoni bo'lib chiqadi. Isbot uchun aytish kerakki, Bryussel konvensiyasiga a'zo davlat kompaniyasi uning hududida real o'troqlikka va davlat bilan haqiqiy iqtisodiy bog'liqlikka ega bo'lsa, undan kompaniyaga nisbatan o'zining milliy kompaniyalar kabi bir xil imperativ normalarni, xususan, yuridik shaxsni tashkil etish va tugatishga oid normalarni qo'llash huquqiga ega (European Communities, 1968, pp. 7–18).

Bundan tashqari, agar kompaniya uchinchi, a'zo bo'lmagan davlat hududida tashkil etilgan bo'lsa va umumiy bozor bilan haqiqiy iqtisodiy aloqasi bo'lmasa, bunday kompaniyani tan olishni a'zo davlat rad etish huquqiga ega (European Communities, 1968, pp. 7–18). Bryussel konvensiyasi maqsadlari uchun real ro'yxatdan o'tgan ofis deganda uning ma'muriy markazi tushuniladi (European Communities, 1968, pp. 7–18).

Afsuski, ushbu xalqaro shartnoma ham Niderlandiya o'zining ratifikatsiya yorlig'ini chaqirib olishi natijasida kuchga kirmasdan qolib ketdi. Bu esa davlatlarning qonunchiligi o'rtasidagi ziddiyatlarning chuqurligidan dalolat beradi.

Xalqaro xususiy huquq bo'yicha Yevropa guruhi ishlab chiqqan “Kompaniya va boshqa tashkilotlarga nisbatan qo'llanadigan huquq to'g'risida”gi qoidalar loyihasi yuridik shaxsga nisbatan qo'llanadigan huquqni tartibga solishga qaratilgan eng so'nggi hujjat hisoblanadi (European Group for Private International Law, 2016). Qoidalarning qo'llanishi subyekt jihatidan ham, huquqiy munosabatlar jihatidan ham bir qator cheklanishlarga uchragan. Jumladan, qoidalar davlat korxonalariga hamda soliq, bojxona va ma'muriy masalalarga nisbatan qo'llanmaydi (European Group for Private International Law, 2016).

Qoidalarning 1-modda, 2-qismida mazkur hujjat bilan tartibga solinmaydigan huquqiy munosabatlar doirasi berilgan bo'lib, unga ko'ra kompaniyaning shartnomadan kelib chiqadigan va shartnomadan kelib chiqmaydigan majburiyatlari, uchinchi shaxslarga nisbatan bo'ladigan munosabatlarda kompaniya a'zolari va direktorlarining fuqarolik majburiyatlari mazkur qoidalar bilan emas, Yevropa Parlamenti va Kengashining “Shartnomaviy majburiyatlarga

nisbatan qo'llanadigan huquq to'g'risida"gi 2008-yilda qabul qilingan 593-sonli Reglamenti (Rim I) va 2007-yilda qabul qilingan 864-sonli "Shartnomadan tashqari majburiyatlarga nisbatan qo'llanadigan huquq to'g'risida"gi Reglamentlar bilan mos ravishda tartibga solinadi. Qoidalarda ta'kidlanganidek, bunda yuqoridagi ikki Reglament orasidagi bo'shliqdan qochishga harakat qilinishi lozim (European Group for Private International Law, 2016).

Qoidalar inkorporatsiya mezonini yuridik shaxsga nisbatan qo'llanadigan huquqni aniqlovchi mezon sifatida tanlagan. Qoidalarning 3-moddasida shunday deyiladi: "Kompaniyaning faoliyati u inkorporatsiya qilgan davlatning qonuni bilan yoki agar, inkorporatsiya qilmagan korxonaga bo'lsa, u tashkil topgan davlatning qonuni bilan tartibga solinishi kerak". Ko'rinib turibdiki, qoidalar kompaniya faoliyatini o'troqlik va ekspluatatsiya markazi mezonlarini emas, inkorporatsiya mezonini bilan tartibga solmoqchi. Bunday holatni inkorporatsiya mezonining g'alabasi deb talqin qilish mumkin.

Boshqa jihatdan esa "bunday yondashuvni kompaniyaning talablariga javob beradigan davlatning huquqini yuridik shaxsning ta'sischilari tanlovi deb ko'rib chiqish kerak. Ayni paytda inkorporatsiya qilingan davlatda markaziy boshqaruv organlarini joylashtirishga bo'lgan majburiy talab mavjud emas" (Yusifova, 2018, pp. 149–150).

Qoidalar yuridik shaxsga nisbatan qo'llanadigan huquqni aniqlovchi mezonlar sifatida liberal yondashgan. Xususan, qoidalarning 4-moddasiga ko'ra 3-moddaga asosan qo'llanadigan huquqni aniqlashning imkoni bo'lmasa (inkorporatsiya mezonini bo'yicha), kompaniya tashkil etilgan vaqtda uning ma'muriy markazi joylashgan joy qonuni qo'llanadi. Ayni paytda "agar kompaniya boshqa davlatning qonunchiligi bilan ko'proq uzviy bog'langan bo'lsa, ana shu davlatning qonuni qo'llanadi" (European Group for Private International Law, 2016). Shunday qilib qo'llanadigan huquqni aniqlash uchun yumshoq kollizion tamoyil qo'llash tendensiyasi kuzatilmoqda (European Group for Private International Law, 2016).

Shuningdek, bu holat qo'llanadigan huquqni aniqlash uchun istalgan mezonni tanlash imkonini beradi va bu o'z navbatida kreditorlarning manfaatlarini kompaniya faqat rasmiy jihatdan bog'langan davlatning emas, amalda bog'liqlikka ega bo'lgan davlat qonunlari himoyasi ostida bo'lishiga sharoit yaratadi.

Qoidalarning 5-moddasida qo'llanadigan huquq bilan tartibga solinuvchi munosabatlar keltirilgan:

a) kompaniyani tashkil etish, jumladan, uning inkorporatsiyasigacha kompaniya nomidan qilingan harakatlari uchun javobgarlik, qayta tashkil etish va tugatish;

b) kompaniyaning nomlanishi;

c) uning huquqiy layoqati, umumiy huquqiy layoqat va xatti-harakat qilishga layoqat, uning vakillik organlari;

d) ichki faoliyati, tashkiliy va kapital tuzilishi;

e) hisoblar, audit va ma'lumotlarni oshkor etish;

f) a'zolik, jumladan: (i) a'zolik shartlari; (ii) a'zolik bilan bog'liq huquqlar va majburiyatlar; (iii) ana shu huquqlarni egallash va boshqarish va (iv) kompaniyaga nisbatan aksiyadorlarning huquqlarini amalga oshirish huquqi;

g) direktorlarning kompaniya a'zolari oldidagi va kompaniya oldidagi javobgarligi;

h) a'zolarining kompaniyaning boshqa a'zolari oldidagi va kompaniya oldidagi javobgarligi;

i) kompaniya majburiyatlari yuzasidan direktorlar va a'zolarining javobgarligi;

j) kompaniyani ro'yxatdan o'tkazishning qonuniyligi uchun inkorporatsiyaga bo'lgan rasmiy talablarning bajarilmasligi oqibatlari.

Qoidalarining ushbu moddasi mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, ular yuridik shaxsning shaxsiy qonunini tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan. Chunki 5-moddada keltirilgan masalalar shaxsiy qonun bilan tartibga solinuvchi huquqiy munosabatlar doirasiga kiradi. Qolaversa, hujjatning 6-moddasida ham shaxsiy qonunga oid bo'lgan qoida berilgan bo'lib, unga ko'ra kompaniyaning uchinchi shaxslar bilan bo'ladigan munosabatlari inkorporatsiya va o'troqlik mezonlari yoki eng uzviy bog'langan mezon asosida qo'llanadigan huquq bilan tartibga solinadi. Ayni paytda bu huquq ana shu qonunlarda uchinchi shaxslarning huquqlarini cheklasa va agar ular bir davlat hududida bo'lsa hamda mana shu davlatning qonunlarida bunday cheklov bo'lmasa, qo'llanmaydi. Tabiiyki, bunda uchinchi shaxs o'zining e'tiborsizligi natijasida kelib chiqqan natijani bilmagan va xabardor qilinmagan bo'lsa, shu qoida amal qiladi. Demak, qoidalarining 6-moddasi kompaniya uchun uchinchi davlatning qonunini majburiyatga aylantirmoqda.

Umuman olganda, qoidalarda inkorporatsiya asosiy mezon bo'lib ko'rinsa-da, agar davlatlar hududida kompaniyaning ma'muriy markazi joylashgan (o'troqlik mezon) bo'lsa yoki faoliyatini amalga oshirayotgan (ekspluatatsiya markazi mezon) bo'lsa, ushbu davlatlarga ana shu kompaniyalarga nisbatan jamoat xavfsizligi uchun o'zining bevosita qo'llanuvchi normalarini (*Overriding mandatory provisions*) joriy etish huquqi berilgan.

Inkorporatsiya va real o'troqlik mezonlari o'rtasidagi ziddiyat davlatlarning shunchaki milliy manfaatlaridan kelib chiqqan injiqliklari emas, balki kompaniyalar bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqishda sudlarning birinchi e'tibor qaratishi lozim bo'lgan masalalardan biriga aylandi. Xususan, *Centros Ltd v Erhvervs* (1999) ishi. Ushbu ishda sud kompaniyaning boshqa davlatda tashkil etilishi va uni erkin harakat qilish erkinligi tamoyili doirasida boshqa davlatda faoliyat yuritishini tan oldi. Bu qaror inkorporatsiya mezonining afzalligini tasdiqladi va "soxta kompaniya" tushunchasiga qarshi pozitsiyani belgilab berdi (*Überseering BV v. Nordic Construction Company Baumanagement GmbH*, 2002).

Überseering BV v. Nordic Construction Company Baumanagement GmbH (2002) qarori. Sud Niderlandiyada ro'yxatdan o'tgan kompaniyani Germaniya tan olmasligi erkin harakat tamoyiliga zid deb topdi. Bu qaror transchegaraviy tan olish tamoyilini mustahkamladi (Yumashev, 1988). *Inspire Art Ltd* (2003) ishida ham sud shunday pozitsiyaga sodiq qoldi: kompaniya boshqa a'zo davlatda tashkil etilgan bo'lsa, unga o'sha davlatning huquqi tatbiq etiladi, boshqa davlatlar esa uni tan olishi shart (*European Group for Private International Law*, 2016).

Bu qarorlar Yevropa Ittifoqi doirasida inkorporatsiya mezonining ustuvorligi tendensiyasini yaratdi, biroq bu holat doim ham kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning huquqlarini to'liq himoya qilmaydi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan tahlil asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1. Zamonaviy transchegaraviy biznes sharoitida yuridik shaxsning "shaxsiy qonuni"ni aniqlashda faqat inkorporatsiya yoki faqat o'troqlik mezon samarasizdir. Shuning uchun "funktional moslashuvchanlik" tamoyilini joriy etish talab etiladi, ya'ni kompaniyaning faoliyat turiga, manfaatdor tomonlar tarkibiga va huquqiy munosabatlarning xususiyatiga qarab qo'llanadigan huquqni aniqlash mezonini o'zgarishi mumkin.

2. Klassik xalqaro xususiy huquq yuridik shaxsning "yagona millati" konsepsiyasiga asoslanadi. Biroq zamonaviy transmilliy korporatsiyalar bir nechta davlatlar bilan o'zaro bog'liq. Shuning uchun nazariy jihatdan "ko'p tomonlama millatlilik" konsepsiyasini ishlab chiqish kerak, bu turli huquqiy munosabatlar uchun turli davlatlar bilan bog'liqlikni tan olishga imkon beradi.

3. Yevropa tajribasi shuni ko'rsatadiki, to'liq unifikatsiya (yagona qoidalar)ni davlatlarning manfaatlaridagi ziddiyatlar tufayli amalga oshirish murakkabdir. Shu sababli xalqaro xususiy huquq nazariyasida kreditorlar va uchinchi shaxslarning asosiy huquqlari uchun minimal standartlarni belgilovchi, qolgan masalalarda esa milliy qonunchilikka havola qiluvchi "minimal standartlar, maksimal garmonizatsiya" tamoyilini ishlab chiqish lozim.

4. Korporativ guruhlar va transmilliy kompaniyalar ichida "korporativ parda"ni ko'tarish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Xalqaro xususiy huquq nazariyasi doirasida "transchegaraviy korporativ mas'uliyat" konsepsiyasini rivojlantirish lozim: bosh kompaniyaning qaysi hollarda qaram jamiyatlar majburiyatlari uchun javobgar bo'lishini aniq belgilash kerak.

5. XXI asrda raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan birga virtual yuridik shaxslar, kriptovalyuta kompaniyalari va blokcheyn-asoslangan tashkilotlar paydo bo'lmoqda. Klassik xalqaro xususiy huquq nazariyasi ularning huquqiy maqomini to'liq tushuntirib bera olmaydi, chunki ular fizik jihatdan biror-bir davlat hududiga bog'liq emas. Shuning uchun "raqamli yuridik shaxslar" uchun yangi nazariy yondashuv ishlab chiqish zarurati paydo bo'lmoqda.

Bundan tashqari, yuqoridagi tahlil va xulosalar asosida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Hozirgi paytda O'zbekiston qonunchiligi ko'proq inkorporatsiya mezoniga asoslangan. Biroq transchegaraviy biznesning rivojlanishi va chet el investitsiyalarining o'sishi sharoitida kompaniyaning O'zbekiston bilan "haqiqiy iqtisodiy bog'liqligi" mezonini qo'shimcha mezon sifatida joriy etish maqsadga muvofiq. Bu kreditorlar va mehnat huquqi subyektlarining manfaatlarini himoya qilishga yordam beradi.

3. O'zbekiston qonunchiligida bosh kompaniyaning qaram jamiyatlar majburiyatlari uchun javobgarligini aniq belgilovchi normalarni joriy etish zarur. Shu munosabat bilan Fuqarolik kodeksiga quyidagi normani kiritish taklif qilinadi: "Agar bosh kompaniya qaram jamiyatga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatish yo'li bilan uni kreditorlarning huquqlarini buzishga majbur qilgan bo'lsa, bosh kompaniya qaram jamiyat majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi".

4. Blokcheyn texnologiyalari va raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan birga, O'zbekistonda ham raqamli yuridik shaxslarning huquqiy maqomini tartibga soluvchi maxsus qonun hujjatini ishlab chiqish zarur.

5. O'zbekiston bir qator ikki tomonlama investitsiyalarni himoya qilish shartnomalarining (BIT) ishtirokchisi. Bunday bitimlardan kelib chiqadigan nizolarda investorlarning millati masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan kelgusida yangi BITlarni tuzishda haqiqiy va effektiv bog'liqlik tamoyilini joriy etish lozim.

Shunday qilib, yuridik shaxslarning "shaxsiy qonuni" va "millati" masalasi faqat huquqiy kategoriya emas, balki davlatlarning iqtisodiy suverenitetini saqlab qolish hamda transchegaraviy biznes uchun qulay muhit yaratish o'rtasidagi muvozanatni topish yo'li hamdir. Masalaning hal etilishi nafaqat integratsion birlashmalar, balki alohida davlatlarning ham iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

REFERENCES

1. ARC Group. (2024). *European cross-border M&A landscape*. <https://arc-group.com/geopolitics-europe-cross-border-m-a/>
2. Aukhatov, A. Ya. (2005). *Opređenje primenimogo k yuridicheskim litsam prava [Determination of the law applicable to legal entities]* (Abstract of Candidate dissertation). Kyiv.

3. Biermeyer, T., & Meyer-Erdmann, M. (2021). Cross-border corporate mobility in the EU: Empirical findings. *SSRN Electronic Journal*. <https://doi.org/10.2139/ssrn.3960618>
4. Centros Ltd v Erhvervs- og Selskabsstyrelsen, C-212/97. (1999). ECR I-1459. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=celex:61997CJ0212>
5. Desarrollo Vial de los Andes S.A.C. v. Republic of Peru, ARB/20/18. (2020). <https://www.italaw.com/cases/10450>
6. Encavis AG and Others v. Italian Republic, ARB/20/39. (2024, March 11). <https://www.italaw.com/cases/9467>
7. European Communities. (1968, February 29). *Convention on the mutual recognition of companies and legal persons*. Bulletin of the European Communities, Supplement 2/69. [EU Commission — working document]. <https://op.europa.eu/en/publication-detail/-/publication/70d4adbe-e490-405f-9e7b-c0fa90baa23d/language-en>
8. European Group for Private International Law (WGPIIL). (2016). *Draft rules on the law applicable to companies and other bodies* (3rd draft). <https://gedip-egpil.eu/wp-content/uploads/2016/09/Company-law-3rd-draft.pdf>
9. García Olmedo, J. (2024). Mihaljević v. Croatia: Abuse of rights and nationality planning by natural persons. *ICSID Review*, 39(1), 42–51. <https://orbilu.uni.lu/handle/10993/60503>
10. Gelter, M. (2024, January 3). *Minimum capital and cross-border firm formation in Europe* (Law Working Paper No. 748/2024). European Corporate Governance Institute (ECGI). https://www.ecgi.global/sites/default/files/working_papers/documents/minimumcapitalandcross.pdf
11. Hague Conference on Private International Law. (1956, June 1). *Convention concerning the recognition of the legal personality of foreign companies, associations and institutions*. <https://www.hcch.net/en/instruments/conventions/full-text/?cid=36>
12. Kamer van Koophandel en Fabrieken voor Amsterdam v. Inspire Art Ltd, C-167/01. (2003). <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:62001CJ0167>
13. Kleshcheva, I. A. (2013). Unifikatsiya prava, reguliruyushchego voprosy priznaniya yuridicheskikh lits drugimi gosudarstvami [Unification of the law regulating issues of recognition of legal entities by other states]. *Vestnik Saratovskoy gosudarstvennoy yuridicheskoy akademii [Bulletin of the Saratov State Law Academy]*, 5(94). <https://cyberleninka.ru/article/n/unifikatsiya-prava-reguliruyushchego-voprosy-priznaniya-yuridicheskikh-lits-drugimi-gosudarstvami>
14. Marko Mihaljevic v. Republic of Croatia, ARB/19/35. (2019). <https://www.italaw.com/cases/10607>
15. Pargendler, M. (2024). *The new corporate law of corporate groups* (Law Working Paper No. 702/2023). European Corporate Governance Institute (ECGI). <https://www.ecgi.global/publications/working-papers/the-new-corporate-law-of-corporate-groups>
16. Peters, A. (Ed.). (2023). Recognition of foreign companies. In *Max Planck Encyclopedia of Public International Law*. Oxford University Press.
17. Scott Morton, F., & Veugelers, R. (2025, December). *Regime 0: Europe-wide incorporation for startups to kickstart innovative growth*. Bruegel Policy Brief Issue n33/25. <https://www.bruegel.org/policy-brief/ regime-0-europe-wide-incorporation-startups-kickstart-innovative-growth>
18. Überseering BV v. Nordic Construction Company Baumanagement GmbH (NCC), C-208/00. (2002). https://infocuria.curia.europa.eu/tabs/affair?lang=EN&sort=AFF_NUM-DESC&searchTerm=%22C-208%2F00%22&publishedId=C-208%2F00
19. Yumashev, Yu. M. (1988). *Pravovoe regulirovanie pryamykh inostrannykh kapitalovlozheniy v EES [Legal regulation of foreign direct investment in the EEC]*. Science.
20. Yusifova, R. T. (2018). *Lichnyy zakon i natsionalnost yuridicheskogo litsa: ponyatie i sootnoshenie v sovremennom mezhdunarodnom chastnom prave [Personal law and nationality of a legal entity: concept and relationship in modern international private law]* (Abstract of Candidate dissertation). MGIMO University.

**O'ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL
2026-YIL 1-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД № 1

**UZBEKISTAN
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 ISSUE 1

VOLUME 3 / ISSUE 1 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.1.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.